


## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-oktabr)


2019 yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 394382,7 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189,5%ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 121675,4 ming AQSH dollarga (148,6 %ga ko'paygan) va import hajmi 272707,3 ming AQSH dollariga (o'sish sur'ati 2,2 marta)ga etdi. Tashqi savdo saldosini minus 151031,8 ming AQSH dollarini tashkil qildi.

**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi**  
(ming AQSH dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

**Tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
(ming AQSH dollari)




2019 yil yanvar-oktabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning boshidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**  
(ming AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	111656,0	5173,7	106482,3	28,3	2,4 m.
Rossiya	61109,6	24843,8	36265,8	15,5	94,5
Qirg'iziston	37237,3	36664,4	572,9	9,4	39,9 m.
Turkiya	34595,9	6139,8	28456,1	8,8	2,6 m.
Qozog'iston	28411,2	20750,0	7661,2	7,2	130,9
Latviya	15667,1	0,9	15666,2	4,0	2,9 m.


Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,4%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 156,9%ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida 61,6% ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martagacha o'sdi.

### Tashqi savdo aylanmasidagi MDX mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi (ming AQSH dollari)




### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH dollari)

2018 YIL  
YANVAR-OKTABR



2019 YIL  
YANVAR-OKTABR



Paxta tolasi	Qora va rangli metallar
Oziq-ovqat mahsulotlari	Mashina va asbob-uskunalar
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	Xizmatlar
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	Boshqalar

### Eksport tarkibi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %

<b>Eksport</b>	121675,4	148,6	100,0	95494,2	172,7	100,0	26181,2	98,4	100,0
<b>Paxta tolasi</b>	6172,7	57,1	5,1	218,0	139,9	0,2	5954,7	55,9	22,7
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	67679,2	2,9 m.	55,6	61980,8	2,8 m.	65,0	5698,4	4,1 m.	21,8
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	763,1	85,3	0,6	476,6	82,4	0,5	283,5	90,7	1,1

<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	1028,9	57,2 m.	0,8	802,1	0,0	0,8	226,8	12,6 m.	0,9
<b>Qora va rangli metallar</b>	142,8	0,0	0,1	142,8	0,0	0,1	0,0	0,0	0,0
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	111,2	184,1	0,1	91,9	152,2	0,1	19,3	0,0	0,0
<b>Xizmatlar</b>	10013,7	122,7	8,3	6714,3	99,6	7,0	3294,4	2,3 m.	12,6
<b>Boshqalar</b>	35763,8	92,3	29,4	25064,7	96,7	26,1	10694,1	83,5	40,9


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)





Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48,6%ga ko'paygan.

### Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, ming AQSH dollari)



### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollari)



- Oziq-ovqat mahsulotlari
- Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- Qora va rangli metallar


- Mashina va asbob-uskunalar
- Xizmatlar
- Boshqalar

## Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	Ming AQSH doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	272707,3	2,2 m.	100,0	55935,6	135,8	100,0	216771,7	2,5 m.	100,0
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	10682,3	113,4	3,9	8746,5	2,1 m.	15,6	1935,8	36,9	0,9
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	13432,5	85,8	4,9	6530,5	122,2	11,7	6902,0	66,9	3,2
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	500,1	4,8 m.	0,2	455,4	8,3 m.	0,8	44,7	91,6	0,0
<b>Qora va rangli metallar</b>	3972,3	77,2	1,5	1507,8	43,0	2,7	2464,5	150,7	1,1
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	151431,0	2,5 m.	55,5	6383,9	130,3	11,4	145047,1	2,6 m.	66,9
<b>Boshqalar</b>	92689,1	2,6 m.	34,0	32311,5	139,2	57,8	60377,6	4,8 m.	27,9


Import qilingan tovar va xizmatlarning o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-oktabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paygan.


### Tashqi savdo aylanmasida Import dinamikasi (oylar kesimida, ming AQSH dollari)






### Viloyat tovar va xizmatlar importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

2018 YIL  
YANVAR-OKTABR



2019 YIL  
YANVAR-OKTABR



Xitoy	Xitoy
Rossiya	Rossiya
Germaniya	Turkiya
Turkiya	Koreya
Qozog'iston	Latviya
Latviya	Niderlandiya

2019 yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatga 50 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Koreya, Latviya, va Niderlandiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 217828,9 ming AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 79,9 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib

borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo‘limi  
Tel.:62-224-65-09